

SPORT MAVZUSINING YORITILISH TENDENSIYALARI

Mehrangiz Mutinova Saidavzalovna

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mustaqillik tufayli o‘zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat, sifatida O‘zbekistonning bor bo‘y bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkonи ochildi. Darhaqiqat sport sohasidagi yutuqlarning bardavomligi, tendensiylar va ijobjiy natijalarning yuqori darajadaligi quyidagi maqola mazmunida iofodalangan.

Kalit so‘zlar: sport, kamera, kommunikatsiya, telekanal, olimpiya, translyatsya, tendensiya, musobaqa, federatsiya.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning ommalashuvini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish, jismoniy madaniyat harakatini rivojlantirish, xalq milliy o‘yinlarini qayta tiklash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, zamonaviy sport turlari bo‘yicha iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning sport mahoratlarini oshirish maqsadida mamalakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan ishlar, qabul qilingan farmon va qarorlari mamalakatimizda sport sohasini ommalashtirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston hukumati sportni davlat siyosati darajasiga ko‘targan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda kelib O‘zbekistonda sportning barcha turlarini ommalashtirishga jiddiy e’tibor berilmoqda. “Hech narsa mamalakatni sport kabi dunyoga mashhur qila olmaydi”⁸ degan edi. O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov “Tashkent open” birinchi tennis turnirining ochilish marosimida so‘zlagan nutqida. Ayniqsa, milliy sport turlarini xalqaro miqyosga olib chiqish bu borada dadil qadam bo‘ldi. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, O‘zbekiston sporti kurash sport turini jahon miqyosida ommalashtirishga erishdi. Bunda ommaviy axborot vositalarining o‘rni katta ekanligini ta’kidlash lozim.

Mamalakatimiz mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bu sohada o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirish borasida muayyan ko‘rinishdagi huquqiy bazasini shakllantirdi.

Davlatimizda sport sohasidagi islohotlar keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Buni yurtimizda 50 dan ortiq sport turi ommalashib 30 tasi Olimpiada o‘yinlari

⁸ <http://www.yoshlar.ittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>

dasturiga kiritilganidan, sport inshootlari sportchi yoshlarga beminnat xizmat ko'rsatib, ularga kuchli mutaxassislar jalb etilganidan ko'rishimiz mumkin. Buning tub zamirida mustaqillik degan oliv ne'mat yotadi. Mustaqilllikka qadar o'zbek sporti jahon sport maydonida begona edi. Ammo 1991 yil Yurtboshimiz I.A. Karimov tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Mustaqil" deb e'lon qilingan kundan boshlab har bir sohada islohotlar boshlab yuborildi, sport sohasi ham bundan chetda qolmadi.

Mustaqillikka erishilishi bilanoq, 1992-yilning yanvar oyida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning huquqiy asos "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida", sport sohasidagi o'quvchilarining iste'dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan "O'zbekiston o'quvchi yoshlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

Qisqa muddatda:

- jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning tashkiliy asoslari takomillashtirildi;
- O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha federatsiyalar tashkil qilindi; jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, ommaviy sport ishlari va sportning milliy turlari rivojlantirildi;
- jismoniy tarbiya va sportning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi; milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga kadrlarni tayyorlash va qayta o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.⁹

1995 yilda "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning tashkiliy asoslari va prinsiplarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning ilk yillaridagi O'zbekistonni va o'zbek sportini dunyoga tanitish maqsadida dastlabki ishlardan biri 1995 yil 29-avgustda Toshkent shahrida "Prezident kubogi"¹⁰ xalqaro turnir ochilishi bo'ldi.

Mamalakatimizda yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligini ta'minlash sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni rivojlantirish, joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, aholi yashaydigan joylarda bolalar sportining moddiy bazasini yaratish, hamda sport uskunalarini jafozlari bilan ta'minlash ishlarni yanada faollashtirish maqsadida, 2002 yilda "O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi" tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Jamg'arma homiylik kengashining raisi etib saylandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qli Kenges raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari mintaqaviy filiallar homiylik kengashlarining raislari etib tayinlandilar.

⁹ <http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315>

¹⁰ www.lex.uz

Sport mashg‘ulotlariga o‘quvchilarni ommaviy ravishda, uzlusiz jalb qilishni tashkil etish maqsadida, “O‘quvchi va talaba yoshlarni sportga jalb qilishga qaratilgan uzlusiz sport musobaqalari tizimini tashkil etish to‘g‘risida” 2003 yildagi qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida mamalakatda umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari hamda oliy ta’lim muassasalari talabalarining “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” musobaqalarining hududlarda respublika final bosqichlarini o‘tkazish rejasi belgilandi.

Jumladan, 2007-yilda “Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi byudjetini va bolalar sport obektlari qurilishining manzilli dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining qarori, “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori kabi rasmiy me’yoriy hujjatlar qabul qilinishi yurtimizdagи barcha hududlardagi mahallalar va ko‘chalardagi yoshlarni, o‘zbek milliy sport o‘yinlari bilan tarbiyalanishiga va komil inson bo‘lib shakllanishiga olib keldi.

2018-yilning 5-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, ilgarigi davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tashkil etilib, uning vazifa va vakolatlari kengaytirilgandi. 2018-yil 20-sentyabr kuni Yurtboshimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘kazildi. Unda sportchilarni tanlab olish – seleksiya ishlarini takomillashtirish bo‘yicha yangi tizim joriy etilishi dastlabki natijalarini bergenligi ta’kidlandi.

Biz xalqaro sport maydonlarida O‘zbekistonning nufuzi va obro‘ - e’tiborini oshirishga katta hissa qo‘shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e’tibor berishimiz kerak,¹¹ – dedi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur yig‘ilishda.

Mustaqillikka qadar O‘zbekiston xalqaro sport jamoatchiligi uchun qariyb yopiq edi. Futbol va tennis bo‘yicha o‘smirlar o‘rtasida sobiq sotsialistik davlatlar sportchilari ishtirokida o‘tkazilgan turnirlarni hisobga olmaganda, mamlakatimizda xalqaro musobaqalar deyarli o‘tkazilmadi.

¹¹ <http://www.yoshlar.ittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi>

Mustabid siyosat jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o‘z asoratlarini qoldirib, bular asosan quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

1. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ishlari markaziy respublikalarga nisbatan past darajada yo‘lga qo‘yildi, sport harakatiga yerli aholi ommaviy ravishda jalg qilinmadi, ular orasidan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash borasida esa, aniq va maqsadli ishlar olib borilmadi.

2. Sport tarmoqlarini rivojlantirish, sport inshootlarini qurish, umuman sportning moddiy-texnikaviy bazasini kengaytirish va moliyalashtirish ishlari faqat markaz roziligi bilan, cheklangan tarzda amalga oshirildi.

3. Soha uchun oliy va o‘rtalumotli kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsada, musobaqalarda milliy sportchi kadrlar turli sun’iy to‘siq va saralashlardan o‘tishga majbur edi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim o‘rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15 – fevraldagagi “Madaniyat va sport sohasida boshqaruvin tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda mamalakatimizda sportni rivojlantirishga oid qator qarorlari ushbu sohada yangi davrni boshlab berdi.

Ushbu farmonning birinchi bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatilsin va uning negizida:

- O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi tashkil qilinsin.¹²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy vazifa va yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yil 31-oktyabr kuni jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarish tizimini takomillashtirish, ommaviy sportni rivojlantirish, iqtidorli sportchilarni tanlash va tarbiyalash, sohani malakali kadrlar bilan mustahkamlash hamda zamonaviy sport inshootlarini barpo etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Ushbu yig‘ilishda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladilar va o‘z nutqlarida shunday deydilar, mustaqillik yillarida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Shahar va

¹² <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.

qishloqlarda zamonaviy sport komplekslari bunyod etildi. “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” musobaqalari yoshlarni ommaviy sportga, sog‘lom turmush tarziga oshno qilish vositasiga aylandi.

Istedodli bolalarni tanlash va professional sportchilarni tayyorlash bo‘yicha uzliksiz tizim yaratildi. Umumta’lim maktablari va bolalar sport majmularidagi mashg‘ulotlarda qobiliyatli ko‘zga tashlangan o‘g‘il-qizlar bolalar va o‘s米尔ar sport maktablari, sport kollejlariga olinib, professional yondashuvlar asosida tarbiyalanmoqda. Buning natijasida, mamlakatimiz sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, xalqimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Xususan, sportchilarimiz 2016-yili Braziliyada o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida 13 ta, Paralimpiya o‘yinlarida 31 ta medalga sazovor bo‘lib, yurtimiz sporti tarixidagi eng yuqori natijalarga erishdilar.¹³

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹⁴gi qarori sohadagi yana bir muhim hujjat bo‘ldi. Ushbu qaror bilan O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish uchun 995,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi, sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasi qurish, rekonstruksiya qilish, kapital tamirlash, jihozlash nazarda tutilgan.

Dastur doirasida joriy yilda 153 ta bolalar maydonchasi tamirlangan, 232 ta zamonaviy maydoncha, Nukus shahrida sportning olimpiya va milliy turlariga ixtisoslashtirilgan sport majmuasi foydalanishga topshirilgan. Yig‘ilishda bu borada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Xususan, Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 39 ta sport inshootini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari jadvaldan ortda qolgani, suzish havzalarini zamonaviy anjomlar bilan jihozlash kechiktirilgani tanqid qilindi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish, yil oxirigacha qurilish ishlarini yakunlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Sport majmularidan foydalanish samaradorligini oshirish, yoshlarni ularga yanada keng jalb etish zarurligi qayd etildi. Sport maktablari, reaspublika oliy sport mahorati maktablari hamda sport federatsiyalarining iqtidorli yoshlarni kashf etish borasidagi hamkorligi, seleksiya ishlari talab darajasida yo‘lga qo‘yilmagani tanqid qilindi. Bu borada aniq shaffof mexanizm yaratish va barcha hududlarni qamrab olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Sportni rivojlantirish, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirish, aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish

¹³ <http://pfru.uz/uz/article/403/>

¹⁴ <http://lex.uz/docs/-3226019>

mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. O‘tgan yillar davomida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi, ulkan natijalarga erishildi. Bugun mamlakatimiz tom ma’noda sport mamlakatiga aylandi. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi keng qaror topib, sportning ommaviyligi ta’minlanmoqda. O‘zbekiston sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, mamlakatimiz sport salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha boshqa davlatlar sport telekanallari faoliyatida, rivojlanish tendensiylariga etibor qaratar ekanmiz, quyidagi faktlarni kuzatamiz. Masalan turkiyalik tadqiqotchi Xarun Ayar fikrlariga ko‘ra Turkiyada sport telekanali faoliyati 1970 yillardan boshlab rivojlanish bosqichini boshlaydi.¹⁵

Zamonaviy televizion texnik vositalarning takomillashuvi bu soha rivojiga ulkan darajada hissa qo‘shadi. Aynan sport musobaqalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilishi 2000 yildan o‘zining haddi a’losiga ko‘tarildi. Aytish kerakki, Xarun Ayar fikriga ko‘ra sport musobaqalarining jonli efirda bo‘lishi tomoshabinning emotsiyonal holatiga sezilarli darajada ta’sirini o‘tkaza oladi.

Tadqiqotchi M.Amara Afrika dunyosida kechayotgan sport jarayonlarini kuzatar ekan, sport yo‘nalishiga ixtisoslashgan telekanal faoliyatining rivojlanishi bevosita o‘sha mamlakatdagi sport sohasining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq degan fikrni ilgari suradi.¹⁶ Shu bilan bir qatorda iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda xususiy sektorlar ko‘payib borgani sari, sportga ixtisoslashgan xususiy telekanallar sonining ham ortishi bu soha rivojiga ijobji ta’sir ko‘rsatganini bayon qiladi.

Ivan Kovachevich Xorvatiya telekanali rivojlanish tendensiylarini mavzusida fikr yuritar ekan, sportning jonli jarayonini ommaga yetkazishda multimedia imkoniyatlaridan ko‘proq foydalanish zarurligini aytadi.¹⁷ Hammamizga ma’lumki, zamonaviy dunyoda internet aholining barcha yosh qatlagini qamrab olgan va aynan sport, internet kanallari telekanaldan ham tezroq jarayonni yetkaza olish imkoniyatiga ega ekanini ta’kidlaydi. Buning uchun Xorvatiyada birinchi galda sport kontentini uzatishning multimedia imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bu jarayonning iqtisodiy tomonlari ham hisobga olinib o‘rganib chiqiladi. Ikkinchidan, xuddi shu yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan internet kanallari bilan solishtiriladi va ularning auditorianing umumiyligi salohiyati o‘sishiga ta’siri o‘rganib chiqiladi. Uchinchidan, so‘rovnama o‘tkazish asosida internet orqali kontent kuzatib borishni odat qilgan auditoriya salmog‘i o‘rganib chiqiladi va nihoyat aynan shu tahlillar xulosasiga ko‘ra

¹⁵ Development of e-Sport in Turkey and in the world Year 2018, Volume 6, Issue1, 95 – 102, 30.03.2018 Harun AYAR

¹⁶ Sport in the African World J Nauright, M Amara – 2018

¹⁷ Ivan Kovacevic (Hrvatski Telekom d.d., Croatia), Mirjana Pejic Bach (University of Zagerb, Croatia) and Bozidar Jakovic (University of Zagreb, Croatia)

sport musobaqalarining yoritilishi Xorvatiya internet yoki telekanallarida doimiy ravishda efirga uzatib boriladi.

Brett Xatchins keyingi vaqtarda butun dunyoda OTT platformasi orqali sport musobaqlari translyatsiyalarining namoyish etilishi me'yordan ham yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganini yozar ekan, bu jarayonda mualliflik huquqi normalariga amal qilinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi.¹⁸ Shu bilan bir qatorda sport musobaqalarini turli manbalarda yoritishda huquqiy normalarga qat'iy amal qilinishi tahlil qilinadi.

Devid Rou Avstraliya televidenesi va radiosи faoliyati misolida sport musobaqalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilishi tomoshabinga “jonli” jarayonni his etish va o‘scha musobaqada bevosita ishtirok etishdek taasurotini bera olganini aytadi. Aynan Avstraliya telekanalida sport jarayonlarini kuzatib borishga 1956 yilda Melbrunda o‘tgan Olimpiada sabab bo‘lgani asos deb hisoblanadi.¹⁹ Shu bilan bir qatorda sportning efirda uzatilishidagi rivojlanish bosqichi kameraning takomillashuvi bilan bog‘lanadi. Aytib o‘tish kerakki, deydi Devid Rou, sportga oid har qanday kontentning qiziqarliligi va ta’siri istalgan tadbirkor uchun reklama berishda ko‘b qismli auditoriya qamroviga erisha olishini ta’minlaydi. Shu qatorda mashhur brendlarning ommalashuviga ham sport auditoriyasining katta qismi salohiyati sabab bo‘lishi amalda isbotlangan va umuman, televizion sport ko‘rsatuvlari hamisha tomoshabinning yuqori kayfiyatini ta’minalashiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi.

Sport jurnalistikasi tarixida sport mavzusining yoritilish tendensiyasiga nazar soladigan bo‘lsak 1896 yilda Afinada birinchi Olimpiya o‘yinlari bo‘lib o‘tdi. Ushbu voqeanning kelib chiqishi fransuz baroni Per de Kubertenning g‘oyasi edi.

XIX – XX asrlarning boshi olimpiya harakatining sport va jismoniy tarbiya sohasidagi nufuzi tobora kuchayib borayotgan davr edi. Aynan u sport tarkibiy qismiga ega bo‘lgan va uning homiyligida xalqlarni birlashtira oladigan tadbirni tashkil qilishni taklif qilgan. Albatta bunday voqeani e’tiborsiz qoldirish mumkin emas edi va ko‘plab evropaliklarning matbuoti musobaqalar haqidagi ma’lumotlarni iloji boricha tez-tez nashr etishga harakat qildilar. O‘scha paytda Evropa va Amerikada ixtisoslashgan sport nashrlari ko‘plab topilar edi. Ammo Olimpiya o‘yinlari haqidagi materiallar gazeta sahifalarida tez – tez e’lon qilinmaydi, bu esa zamonaviy o‘yinchilar orasida ko‘plab savollar tug‘ilishiga sabab bo‘ldi, ammo bu borada mahalliy yunon nashrlari faol edi: ular nafaqat Olimpiada mezbonlari tilida, balki ingliz va fransuz tillarida ham nashr etilgan. XIX asrning oxirida Amerikada sport jurnalistikasi Evropaga qaraganda ancha yaxshi rivojlangan. Ammo birgina Fransiyada 43 ta ixtisoslashtirilgan nashrlar o‘z faoliyatini boshlagani bu muhokamalarning barchasini rad etadi. Sport

¹⁸ Brett Hutchins, Bo Li, David Rowe First Published August 20, 2019 Research

¹⁹ David Rowe Book The Australian TV Book

jurnalistikasining rivojlanishi uchun kriket va futbol katta turtki bo‘ldi. O‘sha paytda bu sport turlari asosan havaskorlar xarakteriga ega edi, ammo har doim keng jamoatchilik e’tiborini tortdi. Yevropa va Amerikada ommaviy axborot vositalarida sportni umumiyligi mavzuda yuqori saviyada yoritish amaliyoti paydo bo‘lganligi ham juda muhim. Misol uchun Britaniyaning “the daily telegraph” va “the guardian” nashrlari sport yo‘nalishini yoritgani tufayli yuqori baho oldi.

XIX asrning oxiri va 80 yillari o‘rtalaridan boshlab sport jurnalistikasi jamoatchilikning qiziqishini qozonishga muvaffaq bo‘ldi. Bu asosan endi turli qatlamdagi odamlarning sport bilan shug‘ullanishi mumkinligi bilan bog‘liq edi. Ixtisoslashgan nashrlar soni keskin oshdi. Tadqiqotchilar XIX asrning oxirini “velosiped davri” deb atashni afzal ko‘rishadi. Ushbu sport turi qisqa vaqt ichida juda ommalashdi, musobaqa va turnirlar barqaror tashkil etila boshlandi. Shunga ko‘ra, matbuot ham jamoatchilikning yangi manfaatlariga o‘ta boshladi. “Velosipedny sport”, “Velosiped”, “Skuter” kabi nashrlar paydo bo‘ldi. Biroq, tez orada velosipedlar avtomobilarga almashtirildi. Ommaviy axborot vositalari yangi usulda qayta formatlashga urinib ko‘rdilar, ammo faqat bir nechta muvaffaqiyat qozondi. Masalan, “Skuter” jurnali avval “Skuter va motor” ga, keyin esa butunlay “Avtomobil biznesi” ga aylandi. Balki milliy sport jurnalistikasi tarixidagi asosiy voqeя universal nashrning paydo bo‘lishi bilan izohlanar. Endi uning maqsadini har safar o‘quvchilarning o‘zgaruvchan didiga va talabiga moslash shart emas edi, shunchaki tarkibni qisman tahrirlash mumkin edi. Ushbu g‘oya muallifi Morits Noyburger, uning “Hunter” jurnalining sarlavha sahifasida shunday yozilgan:

“Sportning barcha sohalariga bag‘ishlangan haftalik tasvirlangan jurnal”. Jurnalist fikrining yo‘nalishi butun segmentni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, ammo amalga oshirish muvaffaqiyatsiz tugadi, chunki ko‘pchilik hali ham ov bilan band edi. Faqat 1900 yilda haqiqiy universal sport jurnali “Sport” paydo bo‘ldi. Ko‘p yillar davomida ushbu nashrning muharriri Georgiy Aleksandrovich Dyuperron edi. Uni zamonaviy sport jurnalistikasining otasi deb atashadi va bu e’tirof uning faoliyati bilan bog‘liq. U “Sport” jurnalini asosiy nashrga aylantirishga muvaffaq bo‘ldi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar sportdan davlat va siyosiy manfaatlarda foydalanish uchun turli imkoniyatlar mavjudligini ham qayd etadilar. Sportning davlat qiyofasini yaratishda eng faol ishtirok etishini tushunish XX asrning boshlarida Amerika Qo‘shma Shtatlari Olimpiya o‘yinlarida birinchi bo‘lib jamoaviy medallar sonini hisoblashni boshlagan paytda namoyon bo‘ldi. Amerika jamiyatining sportga munosabatini ko‘rsatish uchun ikki AQSH prezidentining bayonotlarini keltirish kifoya R. Kennedy o‘z nutqida tog‘ridan – to‘g‘ri ta’kidlagan edi: “Milliy obro‘-e’tiborning bir qismi Olimpiya o‘yinlarida qo‘lga kiritiladi”. U shuningdek, “Xalqning obro‘si – oyga parvoz va Olimpiya oltin medallari” degan ibora bilan mashhur.

J. Ford bundan kam mazmunli fikr aytmagandi: “Ommaviy kommunikatsiyalar tizimining hozirgi holatida sport g‘alabasi ham kam emas. Xalq ruhini yuksaltirishning, aytaylik, jang maydonida g‘alaba qozonishdan ko‘ra samarali yo‘ldir”. So‘ngi paytlarda o‘zini dunyoning super davlati deb bilgan yana bir davlat o‘z sportchilarining yutuqlari ko‘rinishida “yumshoq kuch” yordamida xalqaro maydonda o‘z o‘rnini egallashga katta e’tibor bera boshladi. Zamonaviy Xitoy dunyo jamoatchiligiga siyosiy ta’sir ko‘rsatishning majburiy bo‘lmagan usullarini o‘zlashtirishning muvaffaqiyatli tajribasini namoyish etmoqda. 2007 yildan beri Xitoyning hukmron kommunistik partiyasi sport sanoatini rivojlantirish dasturini va mamlakat aholisini jismoniy rivojlantirish rejasini qabul qildi, bu esa Xitoyning so‘nggi o‘n yillikdagi barcha asosiy sport yutuqlariga erishdi. 2008 yilda Pekinda bo‘lib o‘tgan Olimpiada o‘yinlari butun dunyoga sport salomatlik va baxt timsoliga aylangani Xitoy milliy madaniyatining qudratini, shuningdek, Xitoy iqtisodiy tizimining bunday sport turlarini tashkil etish qudratini namoyish etdi.

Bugungi kunda “jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga”²⁰ davlat siyosati darajasida ahamiyat berilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish joizki darhaqiqat, bugungi kunda o‘ta muhim vazifalar qatorida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida izchil islohotlar natijasida:

- O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi;
- jismoniy tarbiya va sport yoshlarni sog‘lom va barkamol avlod qilib tarbiyalashga, milliy genafondni sog‘lomlashtirish vositasiga, millionlab vatandoshlarimiz ma’naviy hayotining ajralmas qismiga aylantirildi;
- jahon hamjamiyatida ham sport sohasida o‘z o‘rnimiz va ovozimizga ega bo‘ldik. Dunyo O‘zbekiston Respublikasi xalqining jismoniy imkoniyatlari, salohiyati, iqtidori beqiyos ekanligini etirof etdi;
- sport – dini, millati, irqi, jinsi va yoshidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarini jipslashtiruvchi, yakdil qiluvchi omilga, jamiyatda fuqarolararo va millatlararo totuvlikni, ichki barqarorlikni mustahkamlovchi qudratli kuchga aylandi;
- milliy o‘yinlar va sport turlarini tiklashga, ma’naviy hayotni yangilashning, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarining ajralmas qismi sifatida jiddiy etibor berildi.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ПИҚ-3031-Qarori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. <http://www.yoshlar> ittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi
2. http://sovminrk.gov.uz/uz/news/show/5315
3. www.lex.uz
4. <http://www.yoshlar> ittifoqi.uz/uz/news/jismoniy-tarbiya-va-sport-sohasini-rivojlantirish-masalalarining-muhokamasi
5. <http://lex.uz>. Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni.
6. http://pfru.uz/uz/article/403/
7. <http://lex.uz/docs/-3226019>
8. Development of e-Sport in Turkey and in the world Year 2018, Volume 6, Issue1, 95 – 102, 30.03.2018 Harun AYAR
9. Sport in the African World J Nauright, M Amara – 2018
10. Ivan Kovacevic (Hrvatski Telekom d.d., Croatia), Mirjana Pejic Bach (University of Zagerb, Croatia) and Bozidar Jakovic (University of Zagreb, Croatia)
11. Brett Hutchins, Bo Li, David Rowe First Published August 20, 2019 Research
12. David Rowe Book The Australian TV Book
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ПК-3031-Qarori.